

Razakova Rayxan Saylaubekovna

Urganch davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

razzaqova83@gmail.com

FERTIL YOSHDAGI INSONLARDAGI OTA-ONALIK XULQINI NAMOYON QILISHDA OTA-ONA VA FARZAND O'RTASIDAGI MUNOSABATLARDAGI TARBIVAVIY TA'SIR USULLARIDAN FOYDALANISH

Annotatsiya: Mazkur maqolada fertil yoshdagi insonlarda ota-onalik xulqini namoyon qilishda ota-ona va farzand o'rtasidagi munosabatlardagi tarbiyaviy ta'sir usullaridan foydalanish to'g'risidagi ma'lumotlar bayon qilingan.

Kalit so'zlar: Oilaviy xayot, ota-onalik, tarbiya shakllari, nikoh, jismoniy yetuklik, ruhiy yetuklik, ijtimoiy tayyorlik, ota-ona va farzand munosabatlari.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ МЕТОДОВ ВОСПИТАТЕЛЬНОГО ВОЗДЕЙСТВИЯ ВО ВЗАИМООТНОШЕНИЯХ РОДИТЕЛЕЙ И ДЕТЕЙ ПРИ ПРОЯВЛЕНИИ РОДИТЕЛЬСКОГО ПОВЕДЕНИЯ У ЛЮДЕЙ ФЕРТИЛЬНОГО ВОЗРАСТА

Аннотация: В данной статье описано использование методов воспитательного воздействия во взаимоотношениях родителей и детей при проявлении родительского поведения у людей фертильного возраста.

Ключевые слова: Семейная жизнь, воспитание детей, методы воспитания, брак, физическая готовность, психическая готовность, социальная готовность, детско-родительские отношения.

THE USE OF METHODS OF EDUCATIONAL INFLUENCE IN THE RELATIONSHIP BETWEEN PARENTS AND CHILDREN IN THE MANIFESTATION OF PARENTAL BEHAVIOR IN PEOPLE OF FERTILE AGE

Annotation: This article describes the use of methods of educational influence in the relationship between parents and children in the manifestation of parental behavior in people of fertile age.

Key words: family life, parenting, parenting styles, marriage, physical maturity, mental maturity, social readiness, parent-child relationships.

Kirish. Oilaviy munosabatlarning eng ta'sirli, jozibali va muhim bo'lagi - bu ona-bola munosabatlaridir. Ularning muhimligi shundaki, ayni dastlabki muloqot va mehrli munosabatlar bolaning keyingi psixik va aqliy taraqqiyotini hamda onaning xulq-atvorini shakllantiradi. Chaqaloqning jismoniy o'sishi va rivojlanishi tabiiyki, onaning g'amxo'rlikiga bevosita bog'liq. Shunisi muhimki, bola uchun har qanday gamxo'r va mehribon inson unga ona o'rnini bosishi mumkin (buvisi, otasi, enagasi). Lekin kimningdir doimiy g'amxo'rlik, ya'ni, mehribon insonning - "ob'ekt"ning doimiyligi bola rivojlanishi uchun o'ta muhim hisoblanadi. Bola bir yoshga to'lguncha bo'lgan davri noverbal muloqot davri hisoblanib, undagi barcha o'zgarishlar onasi yoki yaqinlari bilan buladigan emotsional, bevosita munosabatlarning natijasi bo'ladi va bora-bora muomalaga til va tovushlar bilan bog'lik belgilar kirib kela boshlaydi. Onaning barcha say'i-harakatlari bu davrda bola psixik rivojlanishining muvaffaqiyatini belgilaydi.

Agar ota va ona tomonidan ko'rsatilayotgan g'amxo'rlik doimiy va samimiylilik kasb etsa, bu E. Erikson ta'biri bilan aytganda, "mutloq ishonch" (bazalnoe doverie)ga asos bo'ladi. Ya'ni haqiqiy, g'amho'r ona bolasining ayni paytdagi barcha ehtiyojlarini qalban his etib, o'sha zaxoti qondirishga harakat qiladi, masalan, chanqasa suv, och qolsa - ko'krak suti, peshob qistaganda, to'sish kabi ishlarni o'z vaqtida bajarib boradi[1].

Onaning bola ehtiyojlarini shu kabi aniq bilib, o'z vaqtida mehr ko'rsatishi ba'zan intuitiv tarzda kechsa, ba'zan ona o'zini bola bilan identifikatsiya qiladi, ya'ni, o'zini uning o'rniga qo'yish orqali, uning talab-istaklarini sezganday bo'ladi, "vujudi bilan his etadi". Bunday his qilishlar odatda ona tomonidan aniq anglanmaydi, lekin, tabiiyki, onaning kechinmalari va sezishlari to'g'ri chiqadi. Lekin ba'zan pediater yoki boshqa mutaxassis bilan bolaning holati haqida fikrlashganda ayrim hollarda o'zining intuitiv qarorlari to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini anglab qoladi.

Oila va nikohning paydo bo'lishiga sababchi omillardan biri, ayniqsa, bizning sharoitimizda, farzand tug'ilishidir. Farzandsiz er-xotin aloqalarini, umuman oilaviy munosabatlarini tasavvur qilish mushkul. Ilmiy manbalar tarixan insoniyat ota-onaga va farzandlar munosabatlari o'ziga xos bosqichlar va rivojlanish qonuniyatlarini boshidan kechirganligidan guvohlik beradi. Bashar tarixi shundan dalolat beradiki, zamonlar osha ota-onaning bolaga nisbatan xususiy mulkdagi qarab, uning ustidan hukmronlik qilishi borgan sari farzand ehtiyojlari bilan hisoblashish, uning barcha istaklarini bajo keltirib, unga cheksiz g'amxo'rlik ko'rsatishgacha bo'lgan munosabatlarga aylangan. Ota-onaga - bola munosabatlarini agar tarixiy davrlarga bo'ladigan bo'lsak, ota-onaning bolaga yondoshuv usullari bo'yicha qator bosqichlarni boshdan kechirganligini ko'rish mumkin.

Ota-onalar farzandlarining jamiyatda tutajak o'rinlari, ularning ijtimoiylashuviga alohida e'tibor bera boshlaganlar. Keyingi davrlar esa kattalarning kichiklar taqdiriga befarq emasligi, ularni qo'llab-quvvatlash, rivojlanishiga ko'maklashishning ahamiyatini anglash davri bulgan. Bu an'ana deyarli bizning davrimizda xam davom etib kelmoqdaki, endilikda tug'ilgan bolaga e'tibor oilaning barcha qadriyatlaridan ustun ham keladi. Lekin bunday g'amxo'rlik psixologiyasi xam madaniy-tarixiy o'ziga xoslikka ega. Masalan, aksariyat xalqlar bolaga u kichikligida juda katta mexr va g'amxo'rlik ko'rsatadi, taxminan o'smirlik davridan boshlab, uning erkinligi tan olinadi va ota-onaga tomonidan beriladigan tarbiya uslublari o'zgartirilib, unga kattalarcha munosabatlar barqarorlashadi.

Boshqa bir madaniy-etnik xududlarda, aksincha, farzand balog'atga yetgani sari ota-onaning unga e'tibori kuchayadi. Masalan, Osiyo xalqlari, xususan, o'zbeklarda xam oila kattaligi va serfarzandligi bois, bolalarning kichik yoshdagi rivojlanish xususiyatlariga tabiiy xolatday qarab, juda katta qaygurish bilan uning ma'naviy, ruhiy rivojlanishiga e'tibor qaratilmaydi. Lekin qiz bola balogatga yetib, ko'rkamlashib borgan sari, o'g'il bolaning qo'lidan ish kelib, qatorga qo'shilgani sari, ota-onada ulardan g'ururlanish, taqdiriga kuyunish, g'amxo'rlik ko'rsatish xam ortib boradi. Bunday g'amxurlik shu qadarki, uylangan qizning qadam bosishlarini ham xamon ota-onaga nazorat qilaveradi, bu ba'zan, qaynona-kelin munosabatlarida, yoki ota-o'g'il munosabatlarida tarangliklarni, nizolarni keltirib chiqaradi.

Yuqorida qayd etilgan davrlarda tabiiy, ota-onaga farzandlarini tutish, tarbiya qilish va jamiyatga tayyorlashda o'ziga xos metodlarni qo'llagan. Boshida o'zidan ajratishni, hayotga tayyorlashni xam bilmagan ota-onaga borabora bolani jamiyatda ijtimoiylashuviga ahamiyat beradigan, shu jarayonga yordam beradigan bo'lib borgan, ota-onadagi egoizm bolalardagiga aylanib borganki, hozirgi davrda ko'pgina ota-onalar farzandlarining faqat o'zini o'ylashi, ota-onani tushunmasligidan noliydigan ham bo'lib qolgan. Lekin aslida tarixiy rivojlanish tendensiyalariga e'tibor berilsa, bunga faqat otaonalarining o'zlari aybdordirlar.

Ota - onaga bosh tarbiyachi. O'tmishdan bugungacha xalqimiz tomonidan allomalar, avlodajdodlardan faxrlanish, ular merosini mukammal o'rganish, olg'a surilgan hayotiy g'oyalardan jamiyatimiz gullab-yashnashi yo'lida foydalanish, davlat ramzlarining mohiyatini anglash aynan oilada amalga oshirila boshlangan. Davlatimizning ayniqsa, ayollarning davlat va jamiyat qurilishidagi rolini oshirish, oilani har tomonlama mustahkamlash, oilada va ta'lim tizimida yoshlarni barkamol qilib tarbiyalash, aholi salomatligini mustahkamlash borasida olib borayotgan siyosatining negizida ham aynan shu g'oya yotibdi[2].

Natijalar. Oilada farzand tarbiyasida eng muhim usul bu shaxsiy namunadir. Ota-onaning xatti-harakatlari, yurish-turishi, muomalasi, o'zaro munosabatlari farzandlarga namuna sifatida katta tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. E'tibor qilganmisiz, ota-onaning o'zaro janjallari, oilaga, jamiyatga, atrof-muhitga salbiy munosabati, ro'zg'orni yuritishdagi pala-partishlilik sharoitida o'sgan bolalar hayotda ko'p adashishadi. Aksincha, oiladagi yuksak ahloqiy munosabatini ko'rgan bola kelgusida oila qurganda ham o'z turmush o'rtog'i bilan shunday yashashga tayyor bo'lib boradi. Ota-bobolarimiz farzand tarbiyasida, ularning xulq-atvorlariga, gapso'zlariga, kishilar

oldida o'zlarini qanday tutib, nimalar haqida fikrlashib, o'z maqsadlarini qanday so'zlar bilan tushuntirishlariga katta ahamiyat berishgan. Sharqona odob ming yillar mobaynida islomiy tarbiya qoidalari asosida tarkib topib, takomillashib borganligi tarixdan ma'lum. Chunonchi, Qur'oni Karim oyatlari mazmuni, Hadisi sharif, Sharq allomalari va faylasuflarining kitoblari tarbiyamizning manbai bo'lib xizmat qilgan. Islomiy tarbiya musulmonlar hayotining barcha qirralarini qamrab olgan. U go'daklarni emizishdan tortib, qanday kiyintirishgacha, ovqatlanish odobidan tortib, ko'cha-kuyda, kattalar qoshida hamda balog'at yoshiga yetganda o'zini qanday tutish lozimligigacha barcha jihatlarini ko'rsatib bergan.

Eng asosiysi, islomiy odob farzandlarning halol, pok, mehnatkash, ilmga intiluvchi, kattalarni, ayniqsa, ota-onani hurmatlash ruhida tarbiyalashni shart qilib qo'ygan. Buning uchun ota-onalar o'z farzandlari o'rtasida obro'ga ega bo'lishlari uchun quyidagi chora - tadbirlarni amalga oshirishlari zarur:

- ota-onalar farzandlari davrasida obro' orttirish uchun ularning ruhiy dunyosiga kirib borishlari ayni muddaodir. Chin obro'ga ega bo'lmoqchi bo'lgan har bir ota-ona qimmatli vaqtlarini o'z norasidalaridan hech mahal ayamaskliklari;
- oila davrasida ota-onalarning kuzatuvchanligi, ziyrakligi, sezgirliigi, fahmliligi, hozirjavobliligi, samimiyligi muhim ahamiyatga ega ekanligi;
- ota-onalarning o'z farzandlariga va oilaning boshqa a'zolariga (buva, buvi, kelin va boshqalar)ga mehribonligi obro' orttirishning eng muhim yo'lidan biri ekanligi;
- farzandlarining kuchiga, qobiliyatiga, aql-zakovatiga, xotirasiga, diqqat-e'tiboriga, irodaviy xislatiga, qiziqishlariga, ko'nikma va malakalariga qarab aqliy va jismoniy topshiriqlarni berish va o'z vaqtida, uzluksiz ravishda ularning natijasini tekshirish va oqilona baho berish, rag'batlantirish bolalarda qat'iylilik va dadillik fazilatini vujudga keltiradi, 190 mustaqil intimini, tashabbus ko'rsatish sari chorlaydi va kattalarga nisbatan ixlosining kuchayganligi;
- ixlos, hurmat, intilish, tirishqoqlik obro'ning uzviy zanjirlari ekanligini his etishlari;
- ota-onalarning ijtimoiy muhitda, jamoatchilik o'rtasida va oila davrasidagi samimiyligi va g'amxo'rliigi ularga katta obro' keltirishi mumkinligini qalban sezishlari katta ahamiyatga egadir[3].

Muhokama. Ota-onalik xulqini namoyon qilishda va ular qo'ygan talablari bolalar rivojlanishiga qanday ta'sir qiladi. Ota-ona avtoritarizmi empatiyaning yo'qligiga, bolada o'zini past baholashning shakllanishiga, uning tashqi talab va standartlarga yo'naltirilishiga olib keladi. Mustaqil izlanish va qaror qabul qilish amaliyotining yetishmasligi bolaning kattalarga qaramligini shakllantirishga, bolaning infantilizatsiyasi va nogironligiga olib keladi. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, eng og'ir psixosomatik kasalliklarga duchor bo'lgan bemorlar ota-onalarning haddan tashqari intizomlilik, muxabbatning yetishmasligi va qattiq tanqid bilan bog'liq demokratik uslubdagi va nazorat qiluvchi uslubdagi ota-ona uslublari bolaning shaxsiyatiga qanday ta'sir qilishini ko'rsatdi.

Ota-onalik xulqini namoyon qilishda demokratik uslub quyidagi parametrlar bilan belgilanadi:

- ota-onalar va bolalar o'rtasidagi og'zaki muloqotning yuqori darajasi, oila muammolarini muhokama qilishda bolalarni ularning fikrlarini hisobga olgan holda jalb qilish;
- agar kerak bo'lsa, ota-onalarning yordamga kelishga tayyorligi, bolaning mustaqil faoliyatining muvaffaqiyatiga ishonish va bolaning ko'rinishida o'z sub'ektivligini cheklash[4].

Ota-onalik xulqini namoyon qilishda nazorat uslubi bolalarning xulq-atvoriga sezilarli cheklovlar kiritishni, bolaga cheklovlarning ma'nosini aniq va lo'nda tushuntirishni, ota-onalar va bolalar o'rtasida intizomiy jazo choralari bo'yicha kelishmovchiliklarning yo'qligini o'z ichiga oladi.

Ma'lum bo'lishicha, demokratik uslubga ega bo'lgan ota-ona oilalarida bolalar o'rta darajadagi yetakchilik qobiliyati, tajovuzkorligi va boshqa bolalarni boshqarish istagiga ega bo'ladi, ammo tashqi nazoratga bo'ysunish qiyin edi. Ular boshqa bolalardan yaxshi jismoniy rivojlanganligi bilan ajralib turardi, Ijtimoiy faollik, tengdoshlar bilan aloqa qilishda mustaqillik mavjud, ammo ularda altruizm, sezgirlik va empatiya xislari biroz kam. Ota-onalik xulqini namoyon qilishda nazorat qiluvchi tarbiya turiga ega bo'lgan ota-onalarning bolalari itoatkor, tortinchoq, qo'rqoqroq, o'z maqsadlariga erishishda qat'iyyatli emas. Ota-onalik xulqini namoyon

qilishda tarbiyaning aralash uslubi bilan bolalarda itoatkorlik, hissiy sezgirlik, tajovuzkorlik, qiziquvchanlik, fikrlashning o'ziga xosligi va tasavvurlarining zaifligi bilan ajralib turardi.

Olimlarimizning bir qator tadqiqotlarda ota-onalik xulqini namoyon qilishda nazorat uslubiga ega bo'lgan bolalar xususiyatlarini ajratishga harakat qilganlar. Bunday vaziyatda xarakat xususiyati turlicha bo'lgan bolalarning uchta guruhi aniqlangan:

Muloqotchan - doimiy yaxshi kayfiyat, o'ziga ishongan, xulq-atvori yaxshi rivojlangan, o'zi - o'zini boshqara oladigan, tengdoshlar bilan do'stona munosabatlar o'rnatish qobiliyati, yangi vaziyatlardan qochish o'rniga kashf qilish istagi.

Tortinchoq - tushkun kayfiyatning ustunligi bilan xamda tengdoshlari bilan aloqa o'rnatishda qiynaladigan tip.

Balog'atga yetmagan - o'z-o'zidan norozilik, o'ziga nisbatan ishonchsizlik, o'z - o'zini nazorat qila olmaslik, xafa bo'lgan vaziyatlarda tushkunlik bilan farqlanadi[5].

Xulosa. Yuqoridagi fikr-muloxozalardan kelib chiqqan xolda shuni ta'kidlash lozimki, olimlarimiz ota-onalik xulqini namoyon qilishning to'rt turini aniqlaganlar, ular bola xususiyatlarini tavsiflashda muxim ahamiyatga ega.

1. Ota-ona nazorati. Ushbu tur bo'yicha ota-onalar o'z farzandlariga katta ta'sir ko'rsatishga harakat qiladilar, o'z talablarini bajarishda turib olishadi va ularga bosim o'tkazishadi. Ota-onalarning nazorat qilish xolatlarida bolalarning qaramlik, tajovuzkorlik xususiyatlari namoyon bo'ladi, odatda bu xil nazorat bolalarning xatti-harakatlarini rivojlantirishga qaratilgan.

2. Ota-onalar tomonidan qo'yiladigan talabchanlik. Bolalarda yetuklikni rivojlantirishga qaratilgan. Ota-onalar farzandlarining intellektual, hissiy va kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirishga harakat qiladilar.

3. Tarbiyaviy ta'sir vaqtida bolalar bilan muloqot qilish usullari. Ushbu ko'rsatkich bo'yicha ota-onalar ishonitirish orqali bolalar xulqida itoatkorlikka erishishga intiladilar, shu bilan birga xar qanday muammoni farzandlari bilan muhokama qilishga, ularning fikrlarini tinglashga tayyor uslub.

4. Hissiy yordam. Ota-onalar hamdardlik, muxabbat va iliqlikni namoyon qila oladilar, Ushbu uslub bolalarning jismoniy va ma'naviy rivojlanishiga qaratilgan.

Farzandingizni faqat u bilan gaplashganda, nasihat qilganda yoki unga biror narsa buyurgandagina tarbiyalayman, deb o'ylamang. Siz bolangizni turmushingizning har bir onida, hattoki o'zingiz uyda yo'qligingizda ham tarbiyalash yo'llarini o'ylang hamda qo'llang. Sizning qanday kiyinishingiz, boshqalar bilan va boshqalar haqida qanday gaplashishingiz, xursand bo'lishingiz yoki tashvishlanishingiz, do'st va dushmaningiz bilan qanday muomala qilishingiz, kulishingiz, gazeta o'qishingiz - bular hammasi bolaga andoza va u katta ahamiyatga ega. Chunki, oilada farzand uchun birinchi taqlid ob'ekti siz bo'lasiz. Gapingiz ohangi sal o'zgarsa ham, bola buni darrov payqab oladi yoki sezadi, bola fikringizdagi hamma o'zgarishlarni har xil yo'llar bilan bilib oladi, lekin o'zingiz bundan bexabar bo'lasiz. Agar siz uyda qo'pollik yoki maqtanchoqlik qilsangiz yoki ichkilik ichsangiz, undan ham yomoni onani haqorat qilsangiz - siz bolalaringizga nihoyatda katta zarar yetkazgan bo'lasiz, ularga yomon tarbiya bergan bo'lasiz va sizning bu nojo'ya qiliqlaringizning oqibati juda yomon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shoumarov G'.B. tahriri ostida. «Oila psixologiyasi», T.: «SHarq, 2000. –272 b.
2. Karimova V. M. «Oilaviy hayot psixologiyasi». Toshkent. 2006 yil. 137 b.
3. Andreeva, T. V. Oila psixologiyasi. - SSP: nutq, 2005y.
4. Grebennikov, I.V. "Oila hayotining asoslari" - M.: ma'rifat, 1991 y.
5. YOshlar ma'naviyati va sog'lom turmush tarzi. Pedagogika fanlari doktori O.Musurmonova umumiy tahriri ostida. "Oydin hayot", Respublika sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish markazi. –T.: 2012, 274 b.
6. Mustahkam oila ma'naviyati. A. Abdusamedov va boshq. T.: "Sanostandart", 2012, 160 b.
7. Mahmudova M. YOshlarda oilaviy hayotga doir ko'nikma va malakalarni shakllantirish. YOshlar ma'naviyati va sog'lom turmush tarzi. Ilmiy to'plam. 102-108 betlar.
8. Musurmonova O. Oila ma'naviyati - milliy g'urur //O'quv qo'l - T.: O'qituvchi, 1999. - 200 b.